

Yangi avlod tadbirkorlarining innovatsion g'oyalarini qo'llab-quvvatlash doimiy e'tiborda bo'lishi lozim



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev joylarda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, yirik loyihalar bilan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida 28 fevral kuni Namangan viloyatiga tashrif buyurdi.

Davlatimiz rahbarining 2018 yil 2-3 may kunlari viloyatga tashrifi chog'ida bergan topshiriqlari ijrosini ta'minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Sanoat, transport, qurilish, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish kabi tarmoqlarni izchil rivojlantirish, uy-joylar barpo etish, aholi farovonligini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratildi.

Prezidentimiz Namangan viloyatiga bu galgi tashrifini To'raqo'rg'on issiqlik elektr stansiyasi qurilishi bilan tanishishdan boshladi.

Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi yuksalishi elektr energetika sohasining barqaror rivojiga bog'liq. Shu bois tizimni modernizatsiya qilish, sohaga zamonaviy texnologiyalarni jalb etish, elektr energiya ishlab chiqarish quvvatini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Istiqbolli loyihalar amalga oshirilayotir.

To'raqo'rg'on tumanida barpo etilayotgan quvvati 900 MVt bo'lgan issiqlik elektr stansiyasi shunday investitsion loyihalardan biridir. Mazkur IESning ishga tushirilishi Farg'ona vodiysida aholi va sanoat korxonalarini uzluksiz elektr energiyasi bilan to'liq ta'minlashga xizmat qiladi.

Loyihaning qiymati 1 milliard 195 million AQSH dollaridan ziyod bo'lib, Yaponiyaning "Mitsubishi Corporation" va "Mitsubishi Hitachi Power Systems" konsorsiumi tomonidan amalga oshirilmoqda. Loyiha Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA), O'zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi va "O'zbekenergo" AJ mablag'lari asosida moliyalashtirilmoqda.

Bunyodkorlik ishlariga 2 ming 400 nafardan ziyod milliy hamda xorijiy mutaxassis va ishchilar jalb etilgan. Loyiha qidiruv va qurilish-montaj ishlari Turkiyaning "Salik Enerji" kompaniyasi muhandis-texniklari tomonidan olib borilayotir.

Hozirgi kunda elektr energiya ishlab chiqaradigan asosiy agregatlardan birinchi va ikkinchi blok transformatorlari, gaz trubina, qozon utilizatorlar, bug' trubinasi va boshqa asbob-uskunalar montaj qilindi. Qolgan elektr qurilma agregatlari keltirib o'rnatilmoqda.

IES hududida tashqi kommunikatsiya ishlari yakunlangan, ichimlik suvi tarmog'i tortilgan. Obyekt "So'x-Namangan" magistral gaz tarmog'i orqali yonilg'i, Katta Namangan kanalidan texnik suv bilan ta'minlanadi.

Stansiyaning birinchi bug?-gaz qurilmasi joriy yil sentyabr oyida, ikkinchisi dekabr oyida ishga tushirilishi rejalashtirilgan. Buning natijasida yiliga qo'shimcha 6,7 milliard kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi. 300 kishi ish bilan ta'minlanadi.

Prezidentimiz bu loyiha muhim strategik ahamiyatga ega ekanini, stansiya vodiylarining iqtisodiy salohiyatini yanada yuksaltirish va aholini ishonchli elektr energiyasi bilan ta'minlash imkonini berishini ta'kidladi.

Issiqlik elektr stansiyasini muvaffaqiyatli ishga tushirish va foydalanish, buning uchun sohaga ixtisoslashgan yuqori malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Viloyatga tashrif chog'ida Prezident korteji kutilmaganda To'raqo'rg'on tumani dehqon bozori yonida to'xtadi. Davlatimiz rahbari xalq ichiga kirib, odamlar bilan samimiy muloqot qildi.

Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirish yo'lidagi islohotlar xalq bilan bamaslahat davom ettirilishini ta'kidladi. Jumladan, Namangan viloyatining har bir tumaniga katta miqdorda investitsiyalar kiritish, yangi korxonalar, sanatoriyalar, maktablar, bog'chalar qurish, ish joylari yaratish bo'yicha ulkan loyihalar boshlanganini qayd etdi.

Tuman aholisi Prezidentimiz tashrifidan benihoya xursand bo'lib, islohotlar natijalari har bir sohada sezilayotganini bildirdi. Namangan viloyati, umuman, mamlakatimiz hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar uchun davlatimiz rahbariga minnatdorlik izhor etdi.

Ta'kidlash kerakki, xalq bilan muloqot qilish, hamisha xalq bilan birga bo'lish Shavkat Mirziyoyev faoliyatining bosh mezonidir. Prezidentimiz har bir hududga, jumladan, 2017 yilda To'raqo'rg'on tumaniga tashrifi chog'ida ham odamlar bilan muloqot qilgan edi.

Davlatimiz rahbari To'raqo'rg'on tumanidagi Axsikent arxeologik yodgorlik majmuasini borib ko'rdi.

Axsikentga eramizdan avvalgi III asrda asos solingan bo'lib, Buyuk ipak yo'lining asosiy shaharlaridan biri bo'lgan. Tarixiy manbalarda, xususan, "Boburnoma"da bu kentning alohida ahamiyati haqida ko'p yozilgan. Qadimdan bu yerda yer osti suvi inshooti bo'lgani bois mudofaa uchun qulay sanalgan.

60 gektarga yaqin qismi saqlanib qolgan Axsikent xarobalari Farg'ona vodiysidagi eng

katta arxeologik yodgorlikdir. Arxeologlar tomonidan temirchilar ustaxonasi, X-XIII asrlarga oid hammom qoldiqlari, askarlar xonalari, jome masjidi, mudofaa devorlari, yer osti irrigatsiya tarmoqlari, hunarmandlar mahallasi, hukmdor qarorgohi – Ark qazib o'rganilgan.

Prezidentimiz topshirig'iga muvofiq, 2017 yilda Axsikent tarixiy yodgorligini asrab-avaylash va tadqiq etish, uning haqqoniy tarixini yaratish bo'yicha ulkan ishlar boshlandi. "Axsikent" arxeologiya merosi obyektini muhofaza qilish va tadqiq etish direksiyasi" davlat unitar korxonasi tashkil etildi.

Mazkur yodgorlik Namangan viloyatining sayyohlik salohiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Yurtimiz va xorijdagi sayyohlik ko'rgazmalarida qadimiy Axsikent haqida ham taqdimotlar o'tkazilmoqda. Buning samarasida mahalliy va xorijiy sayyohlar o'rtasida tarixiy yodgorlikka qiziqish ortmoqda. Hozirga qadar Belgiya, Avstriya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Rossiya, Eron, Pokiston, Hindiston kabi davlatlardan sayyohlar tashrif buyurgan. Qadamjoni tadqiq etish, uning jozibadorligini va sayyohlar oqimini oshirish maqsadida maxsus konsepsiya ishlab chiqilgan. Ayni kunda shu asosda Farg'ona vodiysida ichki turizmni rivojlantirish choralari ko'rilmoqda.

Prezidentimizga Axsikent majmuasi bosh rejasi, uning tadqiqot olib borilgan obyektlari, hududda barpo etiladigan turistik majmua loyihasi haqida ma'lumot berildi.

Unga ko'ra, bu yerda muzey tashkil etiladi. Axsikentning qadimiy dovrug'ini tiklash maqsadida ramziy darvoza quriladi. Umarshayx Mirzo va Boburning Kamoliddin Behzod yaratgan suratlari asosida haykali o'rnatiladi. Sayyohlar uchun Sirdaryo bo'ylab qayiqlarda sayr qilish, tuyada ko'hna shaharni tomosha qilish imkoniyati yaratiladi. Bir so'z bilan aytganda, zarur infratuzilma yaratilib, Axsikent turizm manziliga aylantiriladi.

Axsikent – buyuk tariximiz ko'zguasi. Bobolarimiz yashagan, qahramonlik ko'rsatgan bu manzilda tariximizni tiklash uchun juda katta manba, o'tmish dalillari bor. Biz shu paytgacha faqat mashhur shaharlarimiz tarixini o'rgandik, bunday joylarga e'tibor qilmadik. Ma'naviyatimizni yuksaltirmoqchi bo'lsak, yoshlarimizni ota-bobolarimizning asl merosidan bahramand etib ulg'aytirishimiz, xalqimizga yetkazishimiz kerak, dedi davlatimiz rahbari.

Shavkat Mirziyoyev majmuada qadimiy tariximizni targ'ib qiluvchi festival o'tkazish, Namangan davlat universitetida arxeologiya ta'lim yo'nalishlarini ochish bo'yicha tavsiyalar berdi. Tarixni tarixiy obyektlarda o'qitish, maktab va universitetdagi amaliy mashg'ulotlar va darslarning ayrimlarini shu yerda o'tish zarurligini ta'kidladi.

Mamlakatimizda tadbirkorlik bilan shug'ullanish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Zamon bilan hamnafas faoliyat yuritib, xaridorgir va eksportbop mahsulot ishlab

chiqarayotgan tadbirkorlar safi kengaymoqda.

Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanidagi "FT TEXTILE GROUP" mas'uliyati cheklangan jamiyati shaklidagi qo'shma korxonada ana shunday tadbirkorlik subyektlaridan biri. Bugungi kunda korxonada tayyorlanayotgan ip-kalava mahsulotlari Xitoy, Rossiya, Turkiya va Ukrainaga eksport qilinmoqda.

Korxonada "Shahand" qishloq fuqarolar yig'ini hududida joylashgan. Tadbirkor Zafar Rahimov deyarli xaroba holga kelgan inshootni sotib olib, ishni zamonaviy yigiruv dastgohlarini o'rganishdan boshladi. Bino ta'mirlangach, Germaniyadan eng so'nggi rusumdagi zamonaviy ip yigiruv mashinalari keltirib o'rnatildi. Boshqa zarur uskunalari ham xorijdan olib kelindi. 2018 yili korxonaning birinchi bosqichi ish boshladi.

Korxonaning faoliyat boshlashi Bog'ishamol, Dukat, Temirqishloq, Olchin, Axxi kabi mahallalarda yashovchi 300 nafar fuqaroni doimiy ish bilan ta'minlash imkonini berdi. Ayni paytda bu yerda yiliga 15,6 ming tonna ip-kalava ishlab chiqarilmoqda. Yillik eksport hajmi 10,2 million dollar.

Korxonada o'zini elektr energiyasi bilan to'liq ta'minlash imkoniyatiga ega. Bu yerga Germaniyadan eng zamonaviy gazogenerator keltirib o'rnatilgan. U korxonada elektr energiyasining uzluksiz bo'lishini ta'minlaydi. Ish jarayonida paydo bo'ladigan issiq suv ham behuda ketmaydi. 9 gektar issiqxonani issiqlik bilan ta'minlashga yetadi. Demak, "FT TEXTILE GROUP" mamlakatimizda o'zini elektr energiyasi bilan ta'minlaydigan birinchi korxonaga bo'ldi.

Davlatimiz rahbari korxonada faoliyati bilan tanishdi, ishchilar bilan muloqot qildi. Bunday korxonalarni yana ko'plab tashkil qilish, paxta xomashyosidan tayyor mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish lozimligini qayd etdi.

– Mamlakatimizda o'z ishiga innovatsion yondashadigan tadbirkorlarning yangi avlodi paydo bo'lmoqda, – dedi Shavkat Mirziyoyev. – Ularning safini kengaytirish, doimo qo'llab-quvvatlashimiz lozim.

Prezidentimizga korxonaning ikkinchi bosqichida amalga oshiriladigan ishlar haqida ma'lumot berildi. Unda 200 ish o'rni yaratish, yiliga qo'shimcha 20,8 ming tonna ip-kalava ishlab chiqarish rejalashtirilgan. Ushbu bosqich yakunlangach, ishlab chiqarish quvvati yiliga 36,1 ming tonnaga, eksport hajmi 25,2 million dollar, umumiy ish o'rni 500 taga yetadi.

Namangan viloyatida O'zbekistonning xorijiy mamlakatlardagi elchixonalari bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan investitsion loyihalar taqdimoti ham o'tkazildi. Unda 43 ta istiqbolli loyihani amalga oshirish ko'zda tutilgan. Avtomobillar yoritish chiroqlari,

moped, skuter, mototsikl va motoroller, shuningdek, Pop tumanida "Uz youcheng group" qo'shma korxonasida rejalashtirilayotgan tekstil to'quv dastgohlari ishlab chiqarish loyihalari shular jumlasidandir.

Davlatimiz rahbari Namangan tumanidagi parrandachilikka ixtisoslashtirilgan "Golden egg of Namangan" mas'uliyati cheklangan jamiyati faoliyati bilan tanishdi.

Mazkur korxonada Germaniya, Kanada, Rossiya, Turkiya kabi davlatlardan zamonaviy texnologiyalar keltirib o'rnatilgan. 44 kishi mehnat qilayotgan korxonada 2018 yilda 107 million dona tuxum hamda 3,3 ming tonna parranda go'shti, 4,6 million bosh jo'ja yetishtirildi. Bugungi kunda korxonani parrandachilik klasteriga aylantirish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz parrandachilikni yanada rivojlantirish uchun kreditlar ajratish, soha uchun malakali mutaxassislar tayyorlash, zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish bo'yicha mutasaddilarga topshiriqlar berdi.

Shavkat Mirziyoyev Namangan shahridagi "Art Soft TexGroup" korxonasiga tashrif buyurdi.

Bu yerda turli bichim va rangdagi sochiqlar, xalat, choyshab va boshqa mahsulotlar tayyorlanmoqda. Ular ichki bozorga, shuningdek, Rossiya, Ukraina, Moldova, Bolgariya va qo'shni davlatlarga yetkazib berilmoqda. O'tgan yili 290 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, 9,4 million dollar miqdoridagi mahsulot eksport qilingan.

Namangan shahri, Rishton va Yangiqo'rg'on tumanlarida korxonaning bir nechta sexlari bor. Ularda 2 mingdan ziyod kishi mehnat qiladi. Yaqinda tayyor to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish kompleksi ishga tushirilishi bilan yana mingga yaqin ish o'rni yaratildi.

"Art Soft TexGroup" faoliyatini kengaytirib, klaster usulida ishlashga o'tmoqda. Korxonaga uchun Mingbuloq va Pop tumanlaridan yer ajratilgan, qishloq xo'jaligi texnikalari sotib olingan.

Davlatimiz rahbari korxonaning kelgusi rejalari bilan qiziqdi. Uning tarkibida paxta tozalash, urug' yetishtirish, don mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari, issiqxona tashkil etish, chorva boqish, yem ishlab chiqarish yo'lga qo'yilishini ma'qulladi.

Shu yerning o'zida viloyatda parrandachilik, baliqchilik, chorvachilik, asalarichilik, quyonchilik, intensiv bog'dorchilikni rivojlantirish, irrigatsiya va meliorativ tadbirlarni amalga oshirish, zaxiradagi yerlarni foydalanishga kiritish loyihalari taqdimoti o'tkazildi.

Yana bir loyihada yer va kadastr tizimida yangi innovatsiyalarni joriy qilish bo'yicha ma'lumot berildi. Yangi tizim blokcheyn usulida qo'llaniladi. Innovatsion takliflarga ko'ra, bu tizim orqali obyektning ro'yxatga olishda shaffoflikni oshirish, portal orqali yer ajratish nazarda tutilmoqda. Shu tariqa elektron kadastr pasportini olish muddati 50 kundan 2 kungacha tushadi. Mamlakatimizning "Doing business" reytingida dastlabki 30 talikka kirish imkoniyati paydo bo'ladi.

Prezidentimiz loyihalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish, ularni tezroq ishga tushirib, aholini ish bilan ta'minlash zarurligini ta'kidladi.

Shavkat Mirziyoyev Chortoq tumanida barpo etilayotgan "Chortoq resorts" sanatoriya-sog'lomlashtirish markazi bilan tanishdi.

Ushbu sanatoriya qurilayotgan adirlik yaqin-yaqingacha qarovsiz joy edi. Mahalliy tadbirkor va xorijiy investorlarning jami 25 million dollarlik sarmoyasi evaziga bugun bu yerda 15 gektardan ziyod maydonda zamonaviy oromgoh bunyod etilmoqda.

Bu viloyatda tibbiyot turizmi hamda ekoturizmni rivojlantirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar ochadi. Sanatoriyaning yod, brom, radon va boshqa minerallarga boy shifobaxsh suvi tayanch-harakat a'zolari, yurak-qon tomir va asab tizimlari, endokrinologik va teri kasalliklarini davolashda yaxshi samara beradi. Oromgoh 230 o'ringa mo'ljallangan. 250 kishi ish bilan ta'minlanadi.

Markazga ushbu ixtisosliklar bo'yicha malakali shifokorlarni jalb etish, shartnoma asosida germaniyalik mutaxassislar ishtirokida tibbiy ko'riklar uyushtirish rejalashtirilgan.

Hozir davolash va yotoq binolari, oilaviy dam oluvchilar uchun kottejlar, zamonaviy mehmonxona barpo etilgan. Hovli va yo'laklarni yoritish uchun quyosh panellari o'rnatilgan.

Yana bir e'tiborli jihati, oromgohda ippoterapiya yo'lga qo'yiladi. Bu tayanch-harakat a'zolari va kichik tos kasalliklarini davolashga yordam beradi.

Prezidentimiz ushbu sog'lomlashtirish markazida yaratilgan sharoitlarni ko'zdan kechirdi. Chortoqda yana ko'plab sanatoriyalar tashkil etish, ularni arzon, o'rta va qimmat tarzda tasniflash orqali aholining barcha qatlamlarini qamrab olish, raqobatni ta'minlash hisobidan xizmat narxini tushirish bo'yicha topshiriqlar berdi.

Bizning mintaqamizda yod tanqis. Shu jihatdan Chortoqning yodga boy suvi xalqimiz uchun juda foydali. Lekin bu joyni ko'pchilik bilmaydi, ba'zilar yo'l uzoqligidan qiynaladi. Shuning uchun mamlakatimizning hamma joyidan dam oluvchilarni bu yerga jalb etish kerak. Xalqimiz, ayniqsa, bolalarimizning salomatligi biz uchun eng muhimi, dedi

Shavkat Mirziyoyev.

Davlatimiz rahbari "Chortoq mineral water" mas'uliyati cheklangan jamiyati quvvatini kengaytirish loyihasi bilan tanishdi. Qadoqlangan suvni yiliga 20-30 million donagacha oshirib, ularni yurtimizdagi bog'chalar, yozgi oromgohlar, shifoxonalar, ijtimoiy dorixonalar, supermarketlarga yetkazib berish zarurligini ta'kidladi.

Shu yerda Chortoqni ekologik shaharga aylantirish, Jahon banki bilan hamkorlikda o'rta shaharlar infratuzilmasini rivojlantirish loyihasi doirasida Chortoq shahri markazini qayta qurish, Namangan aeroportini kengaytirish va shaharlararo avtobuslar qatnovini tartibga solish, "Har bir oila – tadbirkor" dasturi asosida aholi bandligini ta'minlash kabi loyihalar taqdimoti o'tkazildi. Prezidentimiz bu rejalarni ma'qullab, ularni takomillashtirish va tizimli amalga oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Viloyatning tog'li tumanlarida olma, olxo'ri kabi hudud iqlimiga mos mevalar yetishtirish, ularni qayta ishlash, oilalarda asalarichilik, parrandachilikni yo'lga qo'yish, shular orqali aholi uchun qo'shimcha ish o'rinlari va daromad manbai yaratish zarurligi ta'kidlandi.

Prezidentimiz Namangan shahridagi "Best Market" supermarketiga tashrif buyurib, mahsulotlar narxi va sifati bilan qiziqdi. Narx-navo barqarorligini ta'minlash uchun mahalliy mahsulotlar turini ko'paytirish va aholi ehtiyojini qoplash zarurligini ta'kidladi.

O'ZA